

XORAZM VILOYATIDA ALOQA VOSITALARINING RIVOJLANISHI. (1945-1985-YILLARDA)

Quranboyeva Sevinchoy Maqsud qizi

Urganch davlat universiteti 1-kurs tayanch doktoranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14292127>

Annotatsiya. Ushbu maqolada Xorazm viloyatida aloqa vositalarining paydo bo'lishi tarixi, rivojlanishi uning aholi kundalik hayotiga ta'siri haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar. Radio, televideniya, radioto'lqin, teleminora, radiostansiya, telemarkaz, televizor.

Aloqa vositalari har doim insonlar orasida ma'lumotlar almashishda katta ahamiyatga ega bo'lgan. Radio va televideniye ijtimoiy, ilmiy-texnikaviy, madaniy o'zgarishlar haqida ma'lumotlarni tarqatish va targ'ib qilish, insonning turmush tarzi, qadriyat yo'nalishlari va uning dunyoqarashiga ta'sir ko'rsatish kabi ulkan vazifani bajaruvchidir. Shuningdek, u madaniy qadriyatlarni ko'paytirish, saqlash va jamiyatga yetkazish kabi yetakchi vazifalarni hech o'zgarmasdan bajaraveradi.

Radio XX asr davomida ommaviy axborot vositalarining shakllanish tarixida muhim voqea bo'lib qolgan va axborot uzatish usullarida yetakchi mavqega egadir. Ikkinchi jahon urushidan keyin aholi hayotida katta o'zgarishlar bo'la boshladi. Aholining yangi ma'lumotlar olishga ehtiyoji kuchaydi. Radio tobora xalqning unga bo'lgan qiziqishini oshira bordi. Ularning ma'naviy turmushini yaxshilashga mumkin qadar hissa qo'shdi. Xorazmga radioni kirib kelishi uni rivojlanishi uzoq tarixga egadir. Arxiv ma'lumotlariga ko'ra, viloyatga dastlabki radioto'lqinlar 1931-yilda kirib kelgan. Bu, albatta, radiostansiya emas, radioto'lqinlar edi, xolos. Stansiyaning o'zi hozirgi Qoraqalpog'iston Respublikasiga qarashli To'rtko'l tumanida bo'lgan. Qoraqalpog'iston Avtonom Respublikasi Atqaru Komiteti Prezidiumining 1931-yil 17-dekabrda Qaroriga asosan To'rtko'l'dagi radiostansiyaning birinchi boshlig'i Gavril Aleksandrovich Lexin bo'lgan.⁽¹⁾ Xorazm xabarlarini eshittirish esa 1933-1934-yillarda Urganch shahrida kichkina radiostansiya tashkil etilgandan keyin boshlangan va u kuniga 30 minutni tashkil etgan.

1936-yilda Xorazm okrugida radio qo'mitasi tuziladi va bu qo'mita uchun 221.922 so'mlik smeta tasdiqlanadi. Nihoyat, birinchi eshittirish 15-yanvardan boshlandi. Kundalik eshittirishlar 2 soatni tashkil etgan va fevral oyidan boshlab mahalliy eshittirishlar 4 soatga uzaytirilgan. Eshittirishlar dastlab Urganchdan Xivaga tarqatiladi. Xiva orqali esa butun shaharga beriladi. Radio qisqa muddat ichida xalqning ruhiyatini ko'taruvchi, ularga shijoat beruvchi manbaga aylana boshladi. Hukumat aholi ishlaydigan obyektlariga zudlik bilan ommaviy tarzda ishlaydigan radiolar o'rnatishga harakat qilgan.

1948-yilga kelib Xorazm viloyatida 10 ta radiostansiya va 4 mingdan ortiq radionuqtalar aholiga xizmat ko'rsatgan. Hatto kolxozlarda ham radiostansiyalar qurila boshlagan. Masalan, Yangiariq rayoni markaziga yaqin bo'lgan Kaganovich nomli kolxozda kuchli radiostansiyasi qurilib, 432 ta aholi xonadoniga radio karnaylari o'tkazilgan. Radiostansiya studiyasidan har kuni ilg'or kolxozchilarning tajribalari, ularning mehnat faoliyati haqidagi xabar va yangiliklar o'qib eshittirilgan.⁽²⁾ Ikkinchi jahon urushidan keyin radiostansiyalar va radio nuqtalar qurilishi ko'paytirildi. Masalan; 1952-yilda Xorazm viloyatida 14 ta kolxoz o'z radiostansiyasiga ega bo'lgan. 1955-yilda Xorazm oblastida 49 ta kolxoz radioeshittirish

tarmoqlariga ega bo'lgan, shundan 28 kolxozning o'z radiostansiyasi mavjud edi.

1951-1955-yillarda Xorazm oblastida radioeshittirish nuqtalari 2,8 barobarga, shu jumladan, qishloq joylarida 3,8 barobarga ko'paygan. Kolxoz radiostansiyalarida radionuqtalar soni 11 marta oshgan. 1960-yillardan keyin radiopriyomniklar nihoyatda ko'paydi. Chunki partiya va hukumatning radiopriyomniklardan foydalanganligi uchun soliq to'lovi bekor qilindi. 1960-yillarga kelib, radiolashtirish rivoj topib, endi u faqat viloyat, tuman yoki kolxoz markazlarida emas, balki maktablarga ham kirib bordi.

Radio vohada tezlik bilan tarqaldiki, natijada viloyatda yangi katta stansiya qurish ehtiyoji tug'ildi. Nihoyat, Xorazmda 1961-yil oktabr oyida RTUM (Radio television uzatish markazi) tashkil topdi. Xorazm RTUM 1961-yilda "Urganch radio television uzatish stansiyasi" deb nomlanib, Xorazm viloyatida birinchi marta balandligi 30 metr bo'lgan teleminora orqali 6 TVK da ishlovchi "TRSA-56" rusumli Rossiyada ishlab chiqarilgan 100 Vt. quvvatga ega bo'lgan teleuzatgich orqali Xorazm viloyati televideniyesi dasturlari va radioeshittirishlari uzatila boshlandi. 1959-yil may oyida Xorazm oblastidagi rayonlardan tashqari 73 ta kolxoz o'z radiostansiyasiga ega bo'ldi.⁽³⁾ 1963-yillarda O'zbekiston bo'ylab 1 milliondan ortiq radio o'rnatilib uning 80% qismi qishloqlarga to'g'ri kelgan. Shu yili Xorazm "radiolashgan viloyat" deb e'lon qilingan. Chunki viloyatdagi radiotochkalar soni 70 mingga yetgan⁽⁴⁾.

Radioeshittirish aholini madaniy, siyosiy jihatdan tarbiyalashning kuchli quroli ham bo'lib qoldi. Radio sovet kishilarining kundalik turmushiga mahkam singib ketdi, radio karnayi har bir oilada oddiy narsa bo'lib qoldi. Xorazm vohasidagi kolxozlarda radiouzel tashkil qilinishi aholi uchun katta madaniy voqealarning biri bo'ldi. Kolxoz radiouzellari aholining siyosiy jihatdan tarbiyalashning chunakam qudratli vositasiga aylantirildi. Masalan; Qo'shko'pir rayon G'azovot qishloq sovetidagi Stalin nomli kolxozda partiya tashkilotining tashabbusi bilan 300 dan ortiq xonadonga, dalachilik brigadalaridagi shiyponlarga, chorvachilik fermalariga va kasalxonalarga radio tochkalar o'rnatilgan. Kolxoz partiya tashkilotining tashabbusi bilan radiouzel orqali qishloq mehnatkashlariga planli ravishda har kuni ertalab, dam olish paytida va kechqurun mahalliy eshittirishlar tashkil qilingan. Mahalliy eshittirishda kolxoz rahbarlari, qishloq xo'jalik mutaxasislari va kolxoz ishlab chiqarish ilg'orlarining chiqishlar qilishgan va o'z tajribalari bilan o'rtoqlashishgan.⁽⁵⁾ Xorazm vohasi aholisi vatanimizning hamma joyida sovet kishilarining fidokorona mehnat qilib erishgan yutuqlari haqidagi habarlarni ham aynan shu radiodan eshitishgan. Aholi paxta dalalaridagi shiyponlarga tush payti yig'ilishib radio orqali ilg'or paxtakorlarning, mehanizatorlarning agranom va kolxoz raislarining so'zlarni tinglashgan. Bu esa aholini mehnatda yangi yutuqlarni qo'lga kiritishlarida ruhlantirgan.⁽⁶⁾

Xorazm viloyati aholisining hayotiga, kundalik turmush tarziga ijobiy ta'sir ko'rsatgan yangiliklardan biri bu televideniyaning yaratilishi va aholi hayotiga televizorning kirib kelishi bo'ldi. Televizorlarning, qo'lbola antennalarning ko'payishi telemarkaz qurish zaruriyatini tug'dirgan. Juda katta kuch bilan teleminora quriladi, telestansiya jihozlari keltiriladi va montaj ishlari amalga oshiriladi. Uning yonida bir qavatli 2-3 ta bino qurilib, bir xonasiga ikki kamerali "Tomson" markali ko'chma telestansiya o'rnatiladi (KTS). 1957-yilning 31-dekabr kuni kunduz soat 12:00 da Xorazm oynayi jahoni ochiladi.⁽⁷⁾ Tinimsiz mehnat natijasida 1958-yilning yangi yil bayramini Xorazm aholisi televizor bilan kutib olishadi. Bu teleminora faqatgina 4 yil faoliyat ko'rsatgan.

1961-yilning 31-dekabrda Xorazm televideniyesi o'z ishini boshladi. Viloyat aholisi buni

yaxshi kayfiyat bilan kutib oldi. Ko'rsatuvlar kechqurun soat 18:00 da boshlanib, 'Yangiliklar', tabriklar, viloyat partiya qo'mitasi birinchi kotibi Faxriddin Shamsuddinovning voha ahliga yangi yil tabrigi, O'zbekiston Oliy Soveti raisi Yodgora Nasriddinovaning Xorazm televideniyesi ishga tushishi munosabati bilan qutlovi va "Mosfilm" kinostudiyasining mahsuloti "Karnavalnaya noch" badiiy filmi efirga berilgan.⁽⁸⁾ Ilg'or kishilarning bunday harakatlari xalq orasida teleko'rsatuvlarga bo'lgan qiziqishni orttirgan. Xorazm televideniyesining xizmat doirasini kengaytirish uchun 1962-yilda Urganch teleminorasining balandligi 60 metrga yetkazildi va birinchi kabel televideniyesi ishga tushirildi.

Xorazm telemarkazining kunlik efirlar hajmi ham oshadi. 1963-yildan boshlab efir hajmi 3 soat, efirga chiqishlar 5 kun qilib belgilanadi. Bu oldingi yillar haftasiga 4 kunni va efir vaqti 2 soatni tashkil etgan.⁽⁹⁾ 1964-yilning yanvar oyida Xorazm TVning eshittirishlar soati oldingi yillardagidan 155 soatga ko'paytirilib, uning mavzulari rang-barang janrlarda olib boriladi.⁽¹⁰⁾ Mutaxassislarning mashaqqatli mehnatlari bilan 1968-yilning boshlarida Xorazmda radiotelerele ishga tushirilgan. Bu esa Xorazm aholisiga O'zbekiston televideniyesi orqali beriladigan barcha ko'rsatuvlarni ko'rish imkonini bergan. Jamiyatda sodir bo'layotgan turli xil jarayonlarga qaramasdan Xorazm televideniyesi o'z taraqqiyotini to'xtatmagan.

Xorazm viloyatida aloqa vositalarining paydo bo'lishi, rivojlanishi, takomillashishi zahirida aholining mashaqqatli mehnatlari yotadi. Aloqa vositalarining kirib kelishi viloyatda aholining madaniy, siyosiy dunyoqarashini oshirishga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Insonlar nafaqat yurtimizda bo'layotgan yangiliklar o'zgarishlar haqida balkim dunyoda bo'layotgan siyosiy habarlardan ham habardor bo'lishdi.

References:

1. Yusupov I. O'zbekistonda aloqa tizimining taraqqiyoti tarixi. (Xorazm viloyati misolida).- Buxoro: Durdona nashriyoti, 2022.-37-bet.
2. Xorazm haqiqati, 1945-yil 7-may. – №89 (7494).
3. XopVDA, 251-jamg', 1-ro'yhat, 1-ish, saqlanish raqami 133. 1-53 varaq.
4. Xorazm haqiqati, 1963-yil 17-may, – №90, 1-bet.
5. Xorazm haqiqati, 1955-yil 7-iyun, №111, (7516) 2-bet.
6. Xorazm haqiqati, 1953-yil 4-may, №89, (7494) 2-bet.
7. Otamurotova A, Begaliyeva M. Radio va televideniye -tafakkur gultoji.-Toshkent: Istiqlol nashriyoti, 2018, 62-bet.
8. Masharipov M, Oynai jahon.-Urganch: Xorazm, 2012-76-bet.
9. O'sha asar-51-bet.
10. Televizion eshittirishlar programmasi kengaydi. Xorazm haqiqati, 1964yil, 19-yanvar, №14 (9737), 4-bet.